

Me'moriy yodgorliklardagi naqshlarni o'rganish orqali talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish

Jamoliddin Yuldashevich Raxmatov
rakhmatovjaloliddin@gmail.com

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Xulkar Zoxid qizi Xudoyberdiyeva
xulkarxudoyberdiyeva58@gmail.com
Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxorodagi IX asr oxiri X asr boshlarida barpo etilgan Ismoil Somoni maqbarasi me'moriy yodgorligidagi naqshlarni o'rganish orqali talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari yoritilgan. Shuningdek, maqbaraning ichki naqsh bezaklari haqida ma'lumotlar ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: amaliy san'at, me'morchilik, maqbara, naqsh, bezak, kompozitsiya

Developing students' creative abilities through the study of ornaments in architectural monuments

Jamoliddin Yuldashevich Rahmatov
rakhmatovjaloliddin@gmail.com
Sharof Rashidov Samarkand State University
Khulkar Zokhid qizi Khudoyberdiyeva
xulkarxudoyberdiyeva58@gmail.com
Shahrisabz State Pedagogical Institute

Abstract: This article explores methods for developing students' creative abilities by studying the ornaments of the Ismail Samani Mausoleum, an architectural monument built in Bukhara at the end of the 9th century and the beginning of the 10th century. Additionally, information about the interior decorative patterns of the mausoleum is also provided.

Keywords: applied art, architecture, mausoleum, ornament, decoration, composition

Yosh avlodni har tomonlama yetuk, komil inson sifatida tarbiyalash uchun yaratilayotgan ta'lim tizimi va uni samaradorligini oshirish bugungi kunning muhim masalalasi hisoblanadi. Jahonda xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha mo'ljallangan ta'lim konsepsiyasida

“bolalarning rivojlanishi, ta’lim olishini individual va tizimli ravishda olib borish juda muhim faoliyat” sifatida e’tirof etilib¹, sifatli ta’lim berish mexanizmlari ta’lim jarayoniga tadbiq etilgan. Shunga ko‘ra, ta’lim - tarbiya jarayonini qabul qilingan davlat ta’lim standartlari asosida takomillashtirish ham dolzarb masaladir. Rivojlanib borayotgan O‘zbekistonning kelajagini barpo qiluvchi yosh avlodga hozirgi zamon fani yangiliklarini va uning murakkab qirralarini o‘rgatish bilan bir qatorda o‘tmish merosimizni o‘rganishga imkoniyatlar yaratishimiz lozim. Bunda me’moriy yodgorligidagi naqshlarni o‘rganish orqali talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.


Amaliy san’at darslarida me’morchilikka oid tarixiy manbalardan foydalanish talabalarning o‘rganilayotgan fanga qiziqishini oshiradi, bilimlarni mustahkam egallashlariga yordam beradi. Amaliy san’at darslarida tarixiy me’morchilik manbalardan foydalanishning ikki asosiy usuli mavjud bo‘lib, birinchi usulda tarixiy manbalardan dars jarayonida foydalanilsa, ikkinchi usulda esa darsdan tashqari ishlarni tashkil etishda foydalaniladi.

Amaliy san’at darslari jarayonida tarixiy me’morchilik manbalardan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Bu esa yodgorliklarni o‘rganish usullari orqali amalga oshiriladi. Yodgorlik deb tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan va o‘tmish davrlarida yaratilgan biron-bir narsa tushuniladi. Ammo yodgorliklar faqatgina tarixiy ahamiyatga ega bo‘lsagina tarixiy yodgorlik deb tushuniladi. Me’moriy obidalar yakka holda qurilgan va davlat muhofazasiga olinib saqlangan inshoot yoki uning majmularidan iborat bo‘ladi. Buni biz Buxorodagi IX asr oxiri X asr boshlarida barpo etilgan Ismoil Somoni maqbarasi yodgorligini o‘rganish misolida ko‘rishimiz mumkin.

Maqbara va uning olchamlarini XX asr olimlari L.I.Rempel, M.S.Bulatov, P.Sh.Zohidov va K.S.Kryukovlar o‘z ilmiy tadqiqotlari orqali taqiq etganlar.

Ismoil Somoni maqbarasi 10,8x10,8 m kvadrat tarxli binodir. Uning tomi yarim shar shakldagi gumbaz bilan yopilgan. Bu ulkan gumbaz o‘zgaruvchan uch o‘lchamdagisi 90,76,57 sm qalinlikda barpo etilgan. Ismoil Somoni maqbarasi gumbazning hosil qilinishida o’sha davr me’morlari 31x31x5, 27x27x4, 23x23x3 sm o‘lchamdagisi pishiq g‘isht turlaridan foydalanishgan. Bu har xil o‘lchamdagisi g‘ishtni yarim shar shaklidagi gumbaz holatiga keltirib ustalik bilan terish o’sha davr me’morlaridan aniq matemetik va geometrik nazariy, amaliy bilimlarga ega bo‘lishni talab etgan. Ismoil Somoni maqbarasi 1993-yilda UNESCOning Butunjahon me’rosi obektlari ro‘yxatiga kiritilgan. (1-rasm).

¹ Incheon Declaration / Education 2030. Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all. – p. 36// <http://unesdoc.unesco.org/images/0023/002338/233813m.pdf>.




1-rasm. Ismoil Somoni maqbarasining umumiy ko'rinishi.

Buxoro IX- asr oxiri X-asr boshlari

Buxoro me'morchilik va naqqoshlik san'atining ildizi juda qadim o'tmishimizga borib taqaladi. Buxorolik naqqoshlar o'zлari uchun zarur bo'lган jamiki buyumlarni badiiy bezab takomillashtirilib kelganlar. Naqshni chizishda, asosan ikki manbadan - tabiiy va geometrik shakllardan foydalanilgan.

Ismoil Somoni maqbarasi binosining ichkari qismi intereridagi bezaklar tashqarisidagi bezaklar bilan uzviy bog'liq bo'lib, uslubi jihatdan bir xil yaratilgan. Maqbaradagi naqshlar o'simliksimon va geometrik murakkab turlarga mansubdir. Maqbara girih naqshlari to'g'ri chiziqlarning o'zaro kesishuvi natijasida geometrik shakllarni hosil qilgan.

Maqbaradagi o'simliksimon naqshlar esa asosan gul, novda, kurtak, barg, gajak, g'uncha, meva kabi elementlarining o'zaro ma'lum tartibda bog'lanib tuzilishidan hosil qilingan. Ustalar hayotda uchraydigan uzum novdasi, bargi va mevasini stilizatsiyalastirib, ular tomonidan ustalik bilan yaratilishi maqbarada o'z aksini topgan. (2-rasm).



2-rasm. Ismoil Somoni maqbarasidagi islimiyl naqsh va uning tuzilishi

Tasvirdan ko'rinishicha islimiyl naqshdagi uzum novdasi, meva va barg elementlarining bir tomonlama harakatlanib o'suvchanligini anglatadi. Uzum novdasi, meva va barg elementlarning o'zaro bir biriga bog'lanib borishi, mutanosib bo'lib,

naqshning bir butun bir yaxlitligini tashkil etadi. Uzum mevasi va bargi naqsh kompozitsiyasida naqshni asosiy to‘ldirib turuvchi va husn beruvchi elementdir. Naqshdagi islamiy barg-islimi naqshi uchun ishlatiladigan maxsus uzum o‘simgining bargidir. Barg-bahor faslidagi tabiatning uyg‘onishini ham bildiradi. Naqshdagi jingalaklar esa naqsh elementlarini o‘zaro bog‘laydigan va bo‘sh joylarni to‘ldirib turuvchi elementdir. Ustalar tabiatdagi uzum daraxti tuzilishini, o‘sish qonun-qoidalari, ko‘rinishini sinchiklab o‘rganib, ulardan islamiy naqsh kompozitsiyasini tuzish uchun har xil elementlarini stilizatsiyalashtirib olganlar. Ustalar naqshdagi uzum novdasi, mevasi va bargini stilizatsiyalashtirib olishda uning go‘zalligini qaysi holatda ustidan ko‘rinishini tasvirlashni izlab topganlar.

Bu naqshni o‘rganishda talabalar dastlab amaliy tasviriy faoliyat jarayonida uzum mevasi va bargi ko‘rinishlarini tasvirlashni nazriy va amaliy jihatdan o‘rganadilar. (3-rasm). Shundan so‘ng tanlangan shakl va naqsh elementlarini naqsh kompozitsiyasi tarkibiga qo‘sish uchun bezak shakliga chizib keltiradilar. Bunda talabalar bir butun yaxlit islamiy naqshning tashqi ko‘rinishlarini bir nechata badiiy chiziqlar yordamida aniq va o‘ziga o‘xhash qilib tasvirlaydilar.



3-rasm. Uzum mevasi va bargini tasvirlash

O‘zbek xalqi ustalari qadimdan qo‘llab kelayotgan barcha naqshlar tabiat hamda voqeylekning shartli tasviri bo‘lishiga qaramasdan o‘ziga xos qonun-qoidalarga asosan yaratiladi. Bu qonun-qoidalalar tabiatning o‘zidan olinadi. Tabiatda o‘simgiliklar faqat bir tomonqa qarab o‘sadi va rivojlanadi.

Tabiatda tok daraxti va uzum mevasi G‘arbiy Osiyoda miloddan bir necha ming yillar ilgari yetishtirilgan. Uning O‘rta Osiyoda 7-8 ta turi keng tarqalgandir. Tok daraxtining barglari tuzilishiga ko‘ra oddiy barg hisoblanadi. Agar barg bandida bitta barg joylashgan bo‘lsa, bunday barg oddiy barg deyiladi. Bularga tok, olma, nok, o‘rik, shaftoli, tut, terak, g‘o‘za, rovoch, yantoq kabi o‘simgiliklarning bargilari kiradi. Tabiatdagi daraxt va o‘simgilik novdasida gul, meva, barg bo‘lib, ular bir tomonlama yo‘nalishda o‘sib davom etib keladi. Tabiatning bu qonuni Ismoil Somoniylar maqbarasidagi islamiy naqsh va uning tuzilishida o‘z aksini topgan. O‘sha davr ustalari tomonidan hosil qilingan bu islamiy naqsh ongli ravishda tabiat va badiiylik qonun-qoidalari amal qilgan holda yaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. P. Sh. Zoxidov."Me'mor olami". T. "Qomuslar bosh tahririyati". 1996.
2. P. Sh Zohidov, "Zeb ichra ziynat". T. "G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti". 1985.
3. Булатов М.С. Мавзолей Саманидов - жемчужина архитектуры Средней Азии. Т. Издательство литературы и искусства им. Гафура Гуляма. 1976.
4. Л.И. Ремпель. «Архитектурный орнамент Узбекистана». Т. «Государственное издательство художественной литературы УзССР». 1961.
5. Bulatov S.S. O'zbekiston xalq amaliy san'ati. Mehnat. T. 1991.